TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA IJODIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Xo‘jaqulov Ro‘zibek Ilxomjon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: maqolada tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi va uning o‘quvchilarning ijodiy va estetik salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Kompetensiya va kompitentlik tushunchalari orqali o‘qituvchining pedagogik mahorati va ijodiy yondashuvi shakllanadi, zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish samaradorligi oshadi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, kompetensiya, kompitentlik, pedagogik mahorat, ijodiy salohiyat, innovatsion metodlar.

Turli sohalarda amalga oshirilayotgan hamkorliklar natijasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, bu yutuqlarni yanada boyitish, ta’lim tizimidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda yuqori sifatli natijalarga erishish ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning alohida shijoati, fidoyiligi, qat’iyati va mas’uliyatini talab qiladi. Shu bilan birga, ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun ilmiy tadqiqotlarga asoslangan metodologik yondashuvlarni tatbiq etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish muhim vazifalardan hisoblanadi [1:12]. Mazkur

strategik yondashuv doirasida yoshlarning bilim olish va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni jamiyatning yetuk a’zosi sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, ta’lim jarayonida innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kreativ pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali yoshlarning intellektual, estetik va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi [2:45]. Shu bilan birga, ta’lim tizimining ushbu sohalarda jadal rivojlanishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta’minlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi [3:4]. Tasviriy san’at nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kundagi madaniy hayot va kelajak avlodning estetik tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning rivoji yurt ravnaqi va farovonligini ta’minlashdagi beqiyos rolini namoyon etadi [4:460]. Shu bois, tasviriy san’at o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki amaliy jihatdan yuqori malakali pedagog sifatida tayyorlash zarurdir. Kompetensiya va kompitentlik tushunchalari bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi: o‘qituvchilarning ijodiy tafakkuri, amaliy ko‘nikmalari, estetik didi va pedagogik mahorati ushbu tushunchalar orqali shakllantiriladi, bu esa ta’lim sifatini tubdan oshirishga imkon yaratadi [5:7]. Shuningdek, tasviriy san’at o‘qituvchisining kompitentligi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki yoshlarni san’at orqali tafakkurga, estetik sezgirlikka va ijodiy yondashuvga o‘rgatish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘z bilim va mahoratini amalda qo‘llay olishi, innovatsion pedagogik metodlarni tatbiq etishi, shuningdek, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llashi lozim [6:3]. Shu bois, tasviriy san’at pedagogik jarayoni ilmiy asoslangan, ijodiy va estetik jihatdan boy bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida kompetensiya tushunchasi pedagoglarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyati, muammolarni hal etish, yangi metodlarni ishlab chiqish va tatbiq etish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir [7:12]. Kompetent mutaxassis o‘z faoliyatida zamonaviy pedagogik metodlarni muvaffaqiyatli tatbiq etadi va ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘llay oladi [8:6984]. Shu tariqa, kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish, balki amaliy faoliyatda innovatsion va ijodiy yondashuvlarni amalga oshirish qobiliyatini ham anglatadi.

Tarixiy tajribada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy kabi olimlar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari va o‘qituvchida bo‘lishi lozim bo‘lgan axloqiy va kasbiy sifatlar haqida o‘z qarashlarini ilgari surganlar. Shu sababli samarali pedagogik faoliyat uchun har bir o‘qituvchi kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi shart, bunda ijodiy yondashuv, kreativ fikrlash, metodik yangiliklarni qo‘llay olish va shaxsiy pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish asosiy omillar sifatida e’tiborga olinadi [1:35]. Bugungi kunda pedagogning kompetentligi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Kompetentlik pedagogning o‘z bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llash, ijodiy rasm ishlash, haykal yaratish, shuningdek, yuzaga kelgan murakkab va muammoli vaziyatlarni uddaburonlik bilan hal qilish qobiliyatlarini o‘zida aks ettiradi [9:3]. Shu nuqtai nazardan, kompetensiya – nazariy tayyorgarlikni, kompitentlik esa amaliy faoliyatni anglatadi [4:462]. Bu ikki tushuncha bir-birini o‘zaro to‘ldiradi va birlashgan holda o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va estetik didini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogning kompitentligi o‘quv jarayonida o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, kompetensiya va kompitentlik tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi, ta’lim jarayonini boyituvchi va o‘quvchilarning shaxsiy hamda ijodiy rivojlanishida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi qanchalik kasbiy kompitent ekanligini uning o‘quvchilari erishgan natijalari orqali baholash mumkin. Ustoz shogirdiga bilim va ko‘nikmalarni yetarlicha shakllantira olishi, ularni real hayotda qo‘llash imkonini yaratishi ustozning kompitentlik darajasini belgilaydi [5:10]. Shu sababli o‘qituvchi doimiy ravishda nazariy va amaliy bilimlarini oshirib borishi, zamonaviy metod va texnologiyalarni o‘zlashtirib, pedagogik faoliyatini rivojlantirishi

zarur. Tasviriy san’at darslari chuqur bilim va uzoq yillik amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi; nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan birlashganda o‘quvchilar ko‘rish, eshitish, o‘qish va amalda qo‘llash orqali bilim va ko‘nikmalarni mustahkam egallaydilar. Ranglarni hosil qilish, mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlash, materiallar bilan ishlash kabi amaliy ko‘nikmalar o‘qituvchidan yuqori darajadagi mahorat va estetik sezgi talab qiladi [6:15]. Shuningdek, kompetent o‘qituvchi nafaqat o‘z sohasini, balki unga yaqin bo‘lgan boshqa fanlarni, masalan, tarix, madaniyatshunoslik, dizayn va kompyuter grafikasi bo‘yicha bilimlarni ham yetarli darajada egallashi lozim. Bu esa o‘quv jarayonini boyitish va yangi pedagogik metodlarni tatbiq etishda yordam beradi [3:12]. Xorijiy tillarni bilish va chet el tajribasini o‘zlashtirish orqali tasviriy san’at o‘qituvchisi ilg‘or pedagogik yondashuvlarni amalda qo‘llay oladi va shaxsiy kompitentligini oshiradi [10:5]. Shu tariqa, zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan o‘qituvchi nafaqat bilimdon, balki ijodkor, metodik jihatdan boy va pedagogik salohiyatga ega mutaxassis bo‘ladi [11:356]. Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompitentligi pedagogik va estetik faoliyatni yuqori sifatda amalga oshirish, o‘quvchilarning ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga tayyorligini bildiradigan integral shaxsiy malaka hisoblanadi. Kompetent o‘qituvchi darslik materiallarini tushuntirish bilan cheklanmay, o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, rang va kompozitsiyani tanlashda ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi, shuningdek, ularni estetik did va badiiy tafakkur bilan boyitadi.

Yuqori darajadagi kasbiy kompitentlik o‘quvchilarning san’at olamiga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga rag‘batlantiradi va kelajakda yetuk mutaxassis sifatida shakllanishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy kompetentligi darslarda zamonaviy va innovatsion pedagogik metodlarni muvaffaqiyatli qo‘llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish, shuningdek, milliy va zamonaviy san’at yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki ularni muammolarni tizimli hal qilish, yangi va original g‘oyalarni yaratish hamda kritik tafakkur va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu tariqa, kasbiy kompitentlik o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik jarayonni samarali va ijodiy jihatdan boyitadi, ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘taradi hamda o‘quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.X.Aslanova, F.F.Salamov, Y.M.Xalikov, “Kasbiy kompitentlik”. Samarqand, 2020.

2. A.A.Berikbayev. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompitentligini rivojlantirish (Monografiya). T.: “Grand kondor print”, 2024.

3. Khojamkulov, R. (2024). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(5). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57.

4. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.

5. Xo‘jaqulov Ro‘zibek Ilxomjon o‘g‘li. (2025, октябрь 21). TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISHDA KOMPETENSIYA VA KOMPITENTLIKNING AHAMIYATI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17403618.

6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,

7. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND